

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



“YER ISLOHOTI” G‘OYASIGA MUNOSABAT VA TALQINLAR

*Sharifjon Islamov**Qo‘lyozmalar fondi,**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti**Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: yer-suv islohoti, ekspropriatsiya, ulamo, taraqqiyparvar, rasmiy hukumat, manba, bahs, matbuot, al-Izah, al-Islah.

Annotatsiya: XX asr 20-yillari mustamlaka davrida Turkistonda amalga oshirilgan yirik islohotlardan biri “Yer-suv islohoti” deb nomlanadi. Ushbu “islohot” shiori mustamlaka hukumat mafkurasiga mutanosib tarzda “yo‘qsillar manfaatini himoya qilish uchun katta mulk egalariга tegishli mulklarni yersiz dehqonlar o‘rtasida taqsimlab berish” dan iborat bo‘ldi. Mazkur davr tarixshunosligiga doir tadqiqotlarning aksiyatida ushbu jarayon statistikasiga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, aksariyat manba va tadqiqotlarda “Yer islohoti” atroflicha yoritilmagan. Buning o‘ziga xos omillari sifatida mustamlaka siyosati, asosiy targ‘ibot materiallari aynan rasmiy hukumat manfaatlariga xizmat qilishi va saqlanib qolgan aksariyat arxiv materiallari ham hukmron siyosatning hisobotlaridan iborat ekanligidir.

Jarayonni obyektiv o‘rganishning muhim jihati aynan mahalliy manbalar, tarixiy hujjatlarning manbashunoslik tahlili orqali aniqlashdan iborat. Mazkur turdagi manbalarning aksariyati o‘sha davrdagi arabiy yozuvdagi turkiy, arab va fors tillarida saqlanib qolgan. Ayniqsa, har bir hujjatning mazmuniga doir dalillari fiqhiy manbalarga ishora qiladi. Buning uchun islomshunoslik bilimlariga tayangan holda tahlil etish lozim. Aks holda, rasmiy arxiv manbalari asosida olib borilgan tarixshunoslik tadqiqotlarining natijasi tabiiy ravishda kolonial hukumat siyosatining manfaatlariga xizmat qiluvchi xulosalarni takrorlashi mumkin.

Maqolada “Yer islohoti”ning rasmiy hukumat

matbuotidagi talqinlari "Pravda Vostoka" gazetasining 1926-yildagi №279-sonida keltirilgan "Duxovenstvo o zemreforre" nomli maqola misolida yoritilgan. Ushbu maqola markazida keltirilgan diniy fatvo hujjati tadqiqot jarayonida dastlabki shubhalarni paydo qiladi, ushbu hujjatning arxivdan asl nusxasini topilishi esa uning batafsil o'rganilishi, natijada mahalliy ulamolarning munosabatlari haqidagi dastlabki xulosalarni keltirib chiqaradi. Sho'roi Islomiya va Ulamo jamiyatlarining matbuot nashrlari bo'lgan "Al-Isloh" va "Al-Izoh" jurnallarida "Yer islohoti"ga doir e'lon qilingan materiallarning tahlili mustamlaka hukumatining mazkur islohoti haqidagi mahalliy fuqarolar va ulamolarning munosabatlari haqida yangi xulosalarga olib keladi.

"Yer islohoti" siyosati natijasida mahalliy aholining shaxsiy mulk va yerlar davlat tasarrufiga o'tkazilgani, ma'lum muddat qashshoq dehqonlarga foydalanishga imkon berilganining barchasi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan katta iqtisodiy siyosat ekanligini namoyon etadi.

ATTITUDES AND INTERPRETATIONS OF THE "LAND REFORM" CONCEPT

Sharifjon Islamov

Manuscripts Fund,

Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: land-water reform, expropriation, ulama, progressive, official government, source, debate, press, al-Izah, al-Islah.

Abstract: One of the largest reforms carried out in Turkestan during the colonial period of the 20s of the twentieth century is called "Land and Water Reform". The motto of this "reform" was "distribution of the property of large landowners among landless peasants in order to protect the interests of the poor" in accordance with the ideology of the colonial government. More attention to the statistics of this process is paid in the historiography of this period. Also, "Land reform" is not covered in detail in most sources and studies. This is because the main propaganda material of colonial policy served the interests of the official government, and most of the surviving archival materials are reports of ruling policies.

An important aspect of the objective study of the process is its determination through source analysis of local sources and historical documents. Most of the sources of this type have been preserved in Turkic, Arabic and Persian languages of the Arabic script of that time. In particular, evidence of the contents of each document refers to sources on fiqh, Islamic law. To do

this, it is necessary to analyze based on knowledge of Islamic studies. Otherwise, the result of historiographic research based on official archival sources may naturally repeat conclusions that serve the interests of the policy of the colonial government.

The article examines the interpretation of "land reform" in the official government press using the example of the article "The Clergy on Land Reform", published in No. 279 of the newspaper "Pravda Vostoka" for 1926. The process of researching the religious fatwa document to which this article is devoted raises initial doubts, and the discovery of the original copy of this document in the archive and its detailed study ultimately leads to preliminary conclusions about the attitude of local scientists. Analysis of materials published on the topic "Land Reform" in the magazines "Al-Islah" and "Al-Iza", which are printed publications of the "Shurai Islamiya" and "Ulama" societies, allows us to draw new conclusions about the relationship between local citizens and ulema about this reform of the colonial government.

As a result of the "Land Reform" policy, private property and local lands were transferred to the state, and poor peasants were allowed to use them for a certain period of time.

ОТНОШЕНИЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИДЕИ "ЗЕМЕЛЬНОЙ РЕФОРМЫ"

Шарифжон Исламов

Фонд рукописей,

Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: земельно-водная реформа, экспроприация, улемы, прогрессист, официальное правительство, источник, дебаты, пресса, аль-Изах, аль-Ислах.

Аннотация: Одна из крупнейших реформ, осуществленных в Туркестане в колониальный период 20-х годов XX века, называется «Земельно-водная реформа». Девизом этой «реформы» было «распределение собственности крупных землевладельцев среди безземельных крестьян в целях защиты интересов бедноты» в соответствии с идеологией колониального правительства. Больше внимания статистике этого процесса уделяется в историографии этого периода. Также «Земельная реформа» подробно не освещена в большинстве источников и исследований. Это связано с тем, что основной пропагандистский материал колониальной политики служил интересам официального правительства, а большая часть сохранившихся архивных материалов представляет собой отчеты правящей

политики.

Важным аспектом объективного изучения процесса является его определение посредством источниковедческого анализа местных источников и исторических документов. Большинство источников этого типа сохранилось на тюрки, арабском и персидском языках арабской графики того времени. В частности, доказательства содержания каждого документа относятся к источникам по фикху - мусульманскому праву. Для этого необходимо анализировать, опираясь на знания исламоведения. В противном случае результат историографического исследования, основанного на официальных архивных источниках, закономерно может повторять выводы, служащие интересам политики колониального правительства.

В статье трактовки «земельной реформы» в официальной правительственной печати рассматриваются на примере статьи «Духовенство о земреформе», опубликованной в № 279 газеты «Правда Востока» за 1926 год. Процесс исследования документа религиозной фетвы, которому посвящена данная статья, вызывает первоначальные сомнения, а обнаружение оригинальной копии этого документа в архиве, его детальное изучение в конечном итоге приводит к предварительным выводам об отношении местных ученых. Анализ материалов, опубликованных на тему «Земельная реформа» в журналах «Аль-Ислах» и «Аль-Иза», являющихся печатными изданиями обществ «Шурай Исламия» и «Улама», позволяет сделать новые выводы об отношении местных граждан и улемов об этой реформе колониального правительства.

В результате политики «земельной реформы» частная собственность и земли местного населения были переданы государству, а бедным крестьянам было разрешено пользоваться ими в течение определенного периода времени.

KIRISH

“Oktyabr inqilobi”dan keyin rasmiy hukumat tomonidan ilgari surilgan, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy masalalarga doir eng yirik “islohot” xususiy mulklarni ekspropriatsiya¹ qilinishidir.

Turkistonda mazkur jarayon jiddiy bahslarga sabab bo‘ldi. Lekin, rasmiy matbuotda islohot atrofidagi bahslar, mahalliy fuqarolarning e’tirozlari deyarli uchramaydi. Ularda “*islohot adolatli*

¹ Ekspropriatsiya - (fr. expropriateur) Davlat organlari tomonidan majburiy ravishda mulkdan mahrum qilish. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 28 b.

va *umuminsoniy prinsiplarga asoslangan*”ligi va uning islom shariatiga muvofiqligini mahalliy ulamolar ham e’tirof etishi bayon etilgan. Aslidachi?

1917-yilgi “O zemle” (Yer haqida) dekretga muvofiq Turkistonda yerni sotish va sotib olishni taqiqlovchi qaror qabul qilindi². Dekretning ijrosi sifatida Turkistonda Yer-suv komiteti tashkil etildi³. Komitet faoliyati natijasida “qonuniy musodara”, aniqrog‘i ekspropriatsiya qilingan xususiy mulklar davlat tasarrufiga o‘tkazilgan va yersiz dehqonlarga taqsimlangan⁴.

Bolsheviklar ushbu “islohot”ni jadallashtirish maqsadida, 1918-yilda “Kambag‘allar komiteti”, 1920-yilda “Qo‘shchi” ittifoqini tashkil etdi. 1921-1925-yillar davomida “Yer-suv islohoti” bir necha bosqichda, turli ijtimoiy qatlamlar kesimida amalga oshirildi⁵.

“Islohot” ortida shaxsiy mulklarning ekspropriatsiya qilinishi, mahalliy ulamolar tarafidan salbiy qarshi olindi. Ular o‘zlarining e’tirozlarini matbuot nashrlari orqali ma’lum qildilar. Mazkur mazmunda mahalliy musulmon nashrlarida ko‘plab maqolalar yozilgan. Ulamo jamiyati nashri bo‘lgan *al-Izoh* jurnali ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarni yoritishda rasmiy hukumat nashrlaridan farq qilgan. Undagi maqolalardan biri, “Yer haqida”⁶ deb nomlanadi. Muallif, Mubashshirxon maqolada rasmiy hukumat tarafidan taklif etilayotgan “Yer islohoti” siyosatining Islom shariatiga ko‘ra hukmi haqida to‘xtalgan. Muallif o‘z fikr mulohazalarini Qur‘on oyatlari va hadislardan argumentlar keltirish orqali to‘ldirgan. Maqola Qur‘ondagi “*al-A‘raf*” (7) surasining 10-oyatidagi “...وجعلنا لكم فيها معايش...” (...*sizlar uchun unda (yerd) tirikchilik vositalarini paydo qildik...*) jumlasiga izoh berishda yerning mohiyati, undan foydalanish zarurati bilan boshlaydi. Unga ko‘ra, insonning butun hayoti, kelib chiqishi, yakuni, hayotining mazmuni yer bilan bog‘liq. Shu sababli, “uni Allohning in’omi deb qarash lozim”, deydi muallif. Mulohazalarini davom ettirib: “yer insonning ajratib bo‘lmaydigan huquqi, uning ruxsatisiz va roziligisiz o‘zlashtirish zulm, bu esa diniy qonunlarga xilof”, degan fikrni bayon qiladi. Mazkur yondoshuv bolsheviklarning yerdan jamoaviy foydalanish g‘oyasi va yer islohoti siyosatiga berilgan keskin rad javobi bo‘ldi. Maqolada mazkur siyosatni amalga oshirish, yer egasining roziligisiz, ya’ni ekspropriatsiya orqali yerga egalik qilish, undan foydalanish shar’iy hukmlarga ko‘ra og‘ir oqibatlarga olib kelishi haqida ogohlantiradi.

Maqolada mahalliy fuqarolarning rasmiy hukumat siyosati ta’sirida Islom shariatiga zid harakat qilishdan qaytariq ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Axborot tarqatilishining 2 yirik shakli bo‘lib, biri norasmiy usul, ya’ni turli ijtimoiy marosimlardagi axborot almashinuvi. Ikkinchisi matbuot nashrlari orqali axborotning tarqatilishi. Odatda dastlab muammolar bu kabi marosimlarda keng muhokama etilgandan so‘ng, dolzarbligiga ko‘ra keyingi bosqichda matbuotda ham tarqatilgan. Mahalliy matbuot nashrida chop etilganligi ushbu mazmundagi talqinlarni norasmiy mahalliy an’analardagi yig‘inlar, turli marosimda ko‘p bora ta’kidlanganidan dalolat beradi. Natijada, hukumat tarafidan ekspropriatsiya orqali olingan yerlar yersiz dehqonlarga taqdim etilganda, ular ushbu yerlardan voz kechib, sobiq egalariga qaytarib berganlarliklarining sababi ham aynan yuqoridagi targ‘ibotlarning ta’siri bo‘lishi mumkin.

Aynan yuqoridagi mazmundagi maqolani “Din va maishat” jurnalida *Qur‘on ulamosining musulmonlarga xitobi* nomi ostida chop etilgan va ushbu maqola *al-Izoh* jurnalida qayta nashr

² Постановление «О запрещении продажи и покупки земель»// Туркестанские ведомости. 09.XIII.1917.

³ O‘zbekiston milliy arxivi, R-29-fond, 3-ro‘yxat, 936-ish, 73-varaq

⁴ O‘zbekiston milliy arxivi, R-29-fond, 3-ro‘yxat, 1086-ish, 6-varaq

⁵ Кунакова Л.З. Земельно-водная реформа в Узбекистане.: Автореф. дис. ... док. ист. наук. – М.: 1970. – С.6

⁶ Mulla Tosh Qori. Yer haqida // *al-Izoh*. – Toshkent, 1918. – № 26. – B. 391-392.

etilganligi qayd etilgan⁷. Unda qardosh xalqlarda “islohot” shiori ostida shaxsiy mulklarning ekspropriatsiyasi mahalliy fuqarolar ishtirokida amalga oshirilayotganligi, bu harakatlar “zulm” ekanligi bois musulmon uchun nojoiz va harom ekanligi bilan ogohlantiriladi.

“Al-Izah” jurnalining 15-sonida keltirilgan “Sotsialist va islom”⁸ nomli maqola mazmuni mavzu doirasida bo‘lib, maqola dastlab Dog‘iston jurnallarida chop etilgan va *al-Izoh* jurnalida qayta nashr qilingan. Unda *islohot* g‘oyasi ortida boshqa siyosiy va iqtisodiy maqsadlardagi guruhlar, siyosiy kuchlar faoliyat yuritayotganligi bayon qilingan. Shu bilan birga bahs qilinayotgan masalaning yechimiga ham to‘xtalangan. XIX asrning 20-yillari sotsializm, bolshevik va menshevik kabi ko‘p bora eshityotgan tushunchalar, siyosiy guruhlar, ular ilgari surayotgan g‘oyalari ko‘pchilikni qiziqtirayotgan davr edi. Muallif Mubashshirxon maqolani yoritishda oddiy misollardan foydalandi. Jumladan, insoniyat tarixida ikki sinf – boy va kambag‘allar azaldan mavjud bo‘lganligi, katta mulk egalari tasarrufidagi mulklar boshqaruvi kambag‘allar xizmati orqali yuritganligi, hamda vaqt o‘tishi bilan boy va kambag‘al orasidagi o‘zaro munosabat buzilganligi, boylar o‘zlarining bir din vakillaridan bo‘lgan kambag‘allar manfaatlarini inobatga olmaganliklari natijasida kambag‘allar manfaatini himoya qiluvchi bolsheviklar kabi guruhlar tashkil topganligini izohlaydi. Ushbu kambag‘alparvarlar o‘zlarini “Sotsialistlar” deb nomlab, avvaliga yagona maqsadda bo‘lgan bo‘lsalar-da, keyinchalik hukumat boshqaruvida turli yo‘nalishda bo‘linganligini aytadi.

1) Podshohlik hukumatini tugatish va uning o‘rniga “*Hukumati jumhuriya*”ni tuzish;

2) katta yerlar, tog‘, adir, daryolarni xususiy mulk sifatida sotmaslik, meros sifatida bermaslik, vaqf qilmaslik, ulardan umum manfaati yo‘lida birgalikda foydalanishdan iborat.

Muallif shu o‘rinda “ديموکرات”/ (“demokrat”)lar va “انقلابی”/ (“inqilobchi”)larning o‘zaro bahsli masalalari kichik yerlarning taqdiri borasida bo‘lganligiga to‘xtaladi. Demokratlar “kichik yer egalari o‘z tasarrufidagi yerlarga egalik qilishlarini maqsadga muvofiq topsa, inqilobchilar katta va kichik yerlarga ajratmaslikni taklif qilayotganliklarini keltiradi. Taqsimlash me‘yori sifatida shaxsning o‘z kuchi bilan yerga ishlov berish imkoniyatidan kelib chiqish belgilanadi, ya‘ni inson o‘z kuchi bilan yerga ishlov berish imkoniyatidan ortiqcha yerlar, hamda, xususiy mulkning har qanday shakli, shu jumladan bosmaxonalarni ham davlat tasarrufiga o‘tkazish taklifi bilan chiqayotganliklarini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, har ikki guruh mafkurasida jamiyat boshqaruvida davlat va dinning o‘rni turlicha, ya‘ni har kim xohlagan dinga e‘tiqod qilishi mumkin, lekin din faqat e‘tiqod va ibodat masalalari bilan cheklanib, “معاملات” / (“muomalot”), ijtimoiy munosabatlar, jamiyat boshqaruvi masalalariga aralashmasligini shart qilib belgilaganligini bayon etadi.

Muallif bizning mintaqaga qay darajada ushbu g‘oyalarning zarurati bor degan savolni qo‘yadi. Mukammal islom shariati bo‘lgan jamiyatda muammoni isloh etishning sharti bitta, u ham bo‘lsa “زکوٰۃ”/ (“zakot”) berish tizimi bo‘lib, uni qayta tartibga solish orqali zaiflar manfaatlarini himoya qilish mumkin, degan fikrni ta‘kidlaydi.

Milliy ishlar komissari Toshxo‘ja ibn Ashirxo‘ja o‘g‘lining «*Fuqaho jamiyati*»ga qilgan murojaati ham juda qiziq bahslarga sabab bo‘lgan. Savol-javoblar “*Ulug‘ Turkiston*” gazetasi⁹ va “*Izhar al-haq*”¹⁰ jurnallarida nashr etilgan.

⁷ Qur‘on ulamosining musulmonlarga xitobi // *al-Izoh*. – Toshkent, 1918. – №22. – B. 343-345.

⁸ Sotsialist va islom // *al-Izoh*. – Toshkent, 1918. – №15. – B. 235-238.

⁹ Fuqaho jamiyatining javobi // *Ulug‘ Turkiston*. №104. 1918. – B.4-5.

¹⁰ Fuqaho jamiyatining javobi // *Izhar al-haq*. №16. 1918. – B.229-232.

Quyidagi provokatsion savollar va unga qaytarilgan javoblarni shartli ravishda matbuotdagi “rasmiy bahslar” deyish mumkin. Sababi, ular rasmiy hukumat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga tegishli masalalar edi. Ularga qaytarilgan javoblar esa shar‘iy hukmlar asosida rasmiy hukumat siyosatiga mahalliy islohotchilarning munosabatlarini namoyon etadi.

Milliy ishlar komissari Toshxo‘ja ibn Ashirxo‘janing savollari¹¹:

1. Kambag‘allarga shariat qanday munosabatda bo‘ladi?
2. Kambag‘allarning o‘z huquqlarini o‘zlari ta‘minlashga haqlari bormi?
3. Oilani hisobga olmaganda, boshqa ishlarda mushtarak bo‘lish (sotsializm) mumkinmi? (ekin, tijorat va ijtimoiy hayotda).
4. Yer umumiy bo‘lishiga (sotsializatsiya qilinishiga) shariat qanday munosabatda bo‘ladi?

Birinchi savolga “Fuqaho jamiyati” quyidagi mazmunda javob beradi: “Shariatda kambag‘allar, ularning hayot kechirishi, moliyaviy ta‘minotiga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, ularning asosini boy qatlam daromadining 40/1 qismi *zakot* va ekin-tekin daromadining 10/1 qismi *ushr* soliqlarini tashkil etadi. Mazkur daromadlarning aniq hisobi boy, ya‘ni mulk egalari aniq ma‘lum bo‘lganligi sababli, ularni foiz hisobida ajratib kambag‘allarga berish mas‘uliyati ham aynan boylarning zimmasiga shariat tomonidan yuklangan, deb fiqhiy asarlardan biri “Majma‘ al-anhar”ga ishora qiladi.

Javob qisqa va lo‘nda shaklda berilgan, uning asoslari fiqhiy manbadagi asl matn va uning tarjimalari orqali ifodalangan.

Ikkinchi savolga quyidagi mazmunda javob berilgan. Agar boylar o‘z xohishlari bilan kambag‘allar ulushini bermasalar, ulardan talab qilishga yoki tortib olishga hech kimning haqqi yo‘q.

Savol bejiz berilmagan, u boylarning mulkini kambag‘allar tomonidan kuch bilan tortib olish, talon-taroj qilish ishlari bo‘yicha ko‘plab bahslar bo‘layotgan davr edi. Mazkur amaliyot sotsialistlarning shiori bo‘lsa, Islom shariatiga asoslangan holda ulamolar ushbu amaliyotdan qaytarishga chaqirar edi.

Uchinchi savolga quyidagi mazmundagi javob berilgan. Musulmonlar shariatga ko‘ra faqat uch narsadan birgalikda foydalanishlari mumkin, ular suv, hech kimga tegishli bo‘lmagan yerdagi o‘t-o‘lan hamda olovdan iborat. Boshqa narsalardan ruxsatsiz umumiy foydalanishni *shariat* taqiqlashini ta‘kidlaydi. Bunda Burhonuddin Marg‘inoniyning «*al-Hidoya fi-l-furu‘*» asariga ishora qilinadi.

“Fuqaho jamiyati” to‘rtinchi savolga quyidagi mazmunda javob beradi: Xususiy mulkning egasidan tortib olinishiga shariat ruxsat bermaydi, jumladan, xususiy mulk sanalgan yerga ham mazkur hukm tegishli. Uni sotsializatsiya qilishga podshoh yoki hudud boshqaruviga mas‘ul bo‘lgan rahbarning ham vakolati yo‘q, degan javobni beradi. Fikrini fiqhiy manbalardan biri “Radd al-muxtor”, “Baxr al-manafi” va “al-Qur‘an al-karim” oyatiga¹² ishora bilan izohlaydi.

Milliy ishlar komissariati tomonidan berilgan savollar va ularga qaytarilgan javoblardan dastlabki xulosa, Milliy ishlar komissariati va “Fuqaho jamiyati” o‘rtasida “sotsializm va islom” qonunlari borasida bahslar to‘qnashuvining bir ko‘rinishini namoyon etadi. Biroq, ushbu savollar rasmiy shaklda, matbuot orqali murojaat qilinganligini inobatga olsak savollar ortidagi maqsadlar ko‘rinadi. Jumladan, hukumat boshqaruvini o‘z qo‘liga olgan sovet hokimiyati siyosatiga mahalliy ziyolilarning munosabati, hukumat tanlagan strategik yo‘nalishda muxolifat va uning salohiyatini aniqlash kabi masalalarga aniqlik kiritilgan. Ikkinchidan, rasmiy hukumat

¹¹ Milliy ishlar komissari Toshxo‘ja ibn Ashirxo‘janing savollari va ularga berilgan javoblar shaklan qisqartirilgan, mazmunan umumlashtirilgan shaklda berildi.

¹² Qur‘oni karim / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur, – T., 2004. – B.29.

siyosatining ijrosini ta'minlash, ayniqsa yer-mulklarining sotsializatsiya qilinishida g'oyaviy qarshiliklar va uning ta'sirlari sezilib turardi. Savollar esa, rasmiy hukumat siyosatiga qarshi turgan muxolifat kuchlarini ko'rsatishga xizmat qildi. Balki, mazkur holatlar ham diniy muassasalar va mahalliy matbuot nashrlari faoliyatiga rasmiy hukumat siyosatini belgilashga asoslangan bo'lishi mumkin. Sababi, rasmiy hukumat ochiq va rasmiy bahslarda shar'iy hukmlarga tayangan mahalliy ziyolilarga tenglasha olmasligi aniq ko'rindi.

Mazkur matbuotdagi bahs mohiyatini Paolo Sartori (Paolo Sartory) o'z maqolasida qisqacha yoritgan: "Musulmon huquqshunoslari javoblari orqali sotsializm *shariat* qoidalariga muvofiq kelmasligini ta'kidlashdi"¹³.

Ko'ryapmizki, mintaqada xususiy mulkni umumlashtirish borasidagi bahslarning ilk bosqichlari muvaffaqiyatsizlik bilan boshlangan. Ommaviy nashrlarda juda kam uchrasa-da, kommunistik partiyaning hisobot majlislarida¹⁴, mustaqil nashrlarda¹⁵ islohot jarayonlaridagi turli bahslarga alohida e'tibor qaratilgan.

Sovet hukumatini "Yer islohoti" bilan bog'liq tashvishga solgan masalalardan biri – bu qishloq joylarida bolsheviklarga qarshi harakatning kuchayishi edi¹⁶.

Agar bolsheviklarning "yer islohoti" borasidagi nashrlariga e'tibor qaratsak, uning tabiiy ravishda amalga oshirilayotgan jarayon ekanligi ko'rsatiladi. Kambag'al dehqonlar tabiiy ravishda, o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda yer islohotini qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur turdagi materiallarni ommaviy axborot orqali rasmiy hukumat siyosatining targ'iboti, mahalliy aholida hukumat siyosatiga nisbatan e'tirozni kamaytirish, rag'batni oshirish maqsadidagi psixologik ta'sir shaklida tushunish mumkin.

Rasmiy hukumat matbuot nashrlarining aksariyatida muallif xalq nomidan o'z munosabatlarini bayon etadi, maqolalardagi ajablanarli jihati – diniy dalillarga suyanishga yoki sotsializmning g'oyalari diniy qonunlarga muvofiqligini isbotlashga urinish ko'zga tashlanadi. Masalan, "Pravda Vostoka"¹⁷ gazetasida ulamolalar¹⁸ yer islohoti shariatga muvofiqligini ta'kidlab, fatvo berganliklari bayon etiladi. Fikrlarning isboti sifatida ulamolalar tarafidan keltirilgan diniy hujjat *rivoyat* faksimile nusxasi ham keltirilgan. Ammo ushbu rivoyatlar tahlili bolsheviklarning xususiy mulkni ekspropriatsiya qilish g'oyasiga mos emasligini ko'rsatdi. Bolsheviklarning "shar'iy legitimligi" mahalliy nashrlarda o'zbek tilida parallel ravishda nashr etib borilgan. Deyarli barcha nashrlarda, yagona rivoyatga¹⁹ ishora qilinib, "yer islohoti" shariatga muvofiqligi borasida «*Nazorati diniya*»ning fatvolari keltirilgan²⁰. "Rivoyat"ning qisqacha mazmuniga ko'ra: "Sovet hukumati tashlandiq, egalari bo'lmagan yoki foydalanishni istamaydigan yer egalarining yerlarini yersiz dehqonlarga berishi shariatga xilof emas. Shu sababli, yer islohotini shariatga muvofiq deb hisoblash mumkin". Ko'ryapmizki, uch turdagi yer

¹³ Паоло Сарторй. Ташкент 1918: гиурисперити мусулмани э ауторитэ совет тиче контро и «предисатори дел базар» // *Аннали ди са' фоссари*, Вол. 3. 2006. P.124-127.

¹⁴ Коммунистическая партия (болш.) Узбекистана. Доклад Центрального комитета коммунистической партии (б) Узбекистана. Самарканд, 1925. – С.4-6

¹⁵ Mustafa Chokay-ogli. *Turkestan pod vlastyu sovetov*. Parij, 1935. – S.45-47.

¹⁶ Б.К. Земелная реформа идет (Баи и духовенство) // *Правда Востока*. № 42. 1926. – С.2; О падении религии и переселении ишанов в кишлак // *Правда Востока* 04.11.1928. – С.4; Урмандиев Н. Земелная реформа идет // *Правда Востока*. № 39. 1926. – С.3.

¹⁷ *Духовенство о земреформе* // *Правда Востока*. – №279. 1926. – С.2

¹⁸ Ushbu "ulamo"lar bolsheviklar g'oyalariga muxolifatda bo'lgan mahalliy ulamolardan farq qilib, bolsheviklar siyosatida bevosita ishtirok etishga majbur bo'lgan qismi.

¹⁹ O'zbekiston milliy arxivi, R-57-fond, 1-ro'yxat, 28-ish, 73-varaq

²⁰ Yer islohoti // *Qizil O'zbekiston*. № 287. 1925. – B.4; Yer islohoti masalasi (Yer islohotining siyosiy ahamiyati) // *Qizil O'zbekiston*. – № 284. 1925. – B.3.

mavjud: xususiy, xususiy bo'lmagan va davlat yeri. *Rivoyat* mazmunida esa, egasi bo'lmagan yerlarni yoki davlat tasarrufidagi yerlarni yersiz dehqonlarga ijaraga berish haqida fikr boradi. Biroq, *rivoyat*da keltirilgan davlat yerlari haqidagi fatvo xususiy yerlarga ham taalluqli shaklda talqin qilingan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarni qamrab olgan "Yer islohoti" haqida rasmiy hukumatning barcha matbuot nashrlari orqali tashviqoti amalga oshirildi. "Pravda Vostoka" №279, 1926-yildagi gazetada "Duxovenstvo o zemreforme" sarlavha ostida maqola tarixiy hujjatning faksimile nusxasi bilan birgalikda chop etilgan. Markazda hujjatning faksimilesi joylashtirilgan, uning atrofiga maqola matni berilgan. Ya'ni shaklan maqola tarixiy hujjat mazmunini yoritayotganligini ko'rsatadi. Mazkur maqolaning asosiy mazmuni yer islohotini shariat yuzasidan "joiz" ekanligini ulamolar tarafidan "tasdiqlaganligi"ni ko'rsatishdan iborat. Ushbu maqolaga ba'zi tadqiqotchilar to'xtalib o'tgan, lekin tarixiy hujjat batafsil o'rganilmagan. Shu bois, maqolada keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda mahalliy ulamolar rasmiy hukumat siyosatini qo'llab-quvvatlashgan degan xulosa shakllangan²¹. Aslida vaziyat tubdan boshqacha bo'lganligi maqola markazidagi tarixiy hujjat va shu mazmundagi tarixiy hujjatlar tahlili orqali namoyon bo'ladi.

Hujjatning asosiy mazmunini beruvchi fors tilidagi matn qismiga to'xtalamiz. Mazkur matn shakliga ko'ra *rivoyat* uslubida yozilgan. Mazmunan *yer islohotiga* xizmat qiluvchi amaliy chora-tadbirlarni taklif qilib, ularni shariatga muvofiq yoki muvofiq kelmasligi borasidagi murojaat bilan savol shaklida yakunlanadi. Taklif shundan iboratki, katta yer egalari o'zlari o'z kuchi va imkoniyati doirasida tasarruf eta olmaydigan yerlarni yersiz dehqonlarga taqdim etsalar, mazkur dehqonlar olgan hosillari va daromadlaridan *ushr* solig'ini rasmiy hukumatga taqdim qilsalar, Islom shariatiga muvofiq bo'ladimi degan mazmunda keltirilgan. Murojaat qiluvchi: Mullo Ibrohim Mullo Komil o'g'li *rivoyat* matnini mazkur murojaat savoli bilan yakunlaydi.

Ko'ryapmizki, unda rasmiy hukumatning yer islohoti shiori ortida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ekspropriatsiya siyosati qo'llab-quvvatlanmagan. *Rivoyat* matni maqolada ilgari surilgan mulohazalarga mazmunan muvofiq emas.

Tarixiy hujjatning o'ng tarafida mahalliy ijtimoiy masalalarni hal etishda ko'p bora qo'llaniladigan fiqhiy manbalardan 10 dan ortiq argumentlar keltirilib, ularning barchasi Yer va shaxsiy mulklardan foydalanishning shartlarini o'zida aks ettirib, ularga egasining ruxsatisiz daxl qilish mumkin emasligi qat'iy ifodalangan.

Rasmiy hukumat bosma nashrlarida "Yer-suv islohoti" talqini

Hukumat islohotlarining targ'iboti nafaqat matbuot nashrlari, balki risola shaklidagi adabiyotlar orqali olib borilgan. Jumladan, 1919-yil Samarqandda Yer-suv komissariyati tomonidan "*Yer haqida ikki turli fikr*" nomli risola chop etilgan²². Risola muallifi anonim, "ishchi"²³ taxallusida berilgan. Risola mahalliy aholining islohotlarga nisbatan munosabatini aks ettirishi tarzida bayon etilgan. Asarning qisqacha mazmuni: xalqni qiyin ahvolga solgan podshohlikning (Romanovlar) "kirdikor"larini fosh etish, sotsializmning ustun taraflarini

²¹ Shigabdinov R. "Sovetskiye Rivoyati" s Sredney Azii: reaksiya ulemov na sotsialisticheskiye reformi 1920-x godov // Materiali mejdunarodnoy islamovedcheskoy nauchnoy konferensii 11-13-dekabrya 2007 g., Mir Islam. Istoriya. Obshestvo. Kultura, Moskva: Izdatelskiy dom Mardjani, 2009. –S. 21- 26

²² Ishchi. Yer haqida ikki turli fikr, Noshir: Yer-suv komissariyati, Samarqand-1919y. 35-b. O'zRFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozma va toshbosma asarlar fondi. Inv.№ L.9441

²³ Muallif o'z nomini anonim qoldirib, rasmiy hukumat mafkurasiga mos taxallus ostida ijod qilish XX asr matbuotida ko'p uchraydi. Mazkur taxalluslar ko'proq diniy masalalar yoki din peshvolari tanqidiga qaratilgan maqolalarda qo'llanilgan. Qarang: Mushtum, Mullo mushfiqiy kabi hajviy jumallarning 1924-26 yil sonlari.

ko'rsatishga bag'ishlangan. Asarning asosiy qismida yerni, xususiy mulkni tasarruf qilish borasida ikki xil yondashuvdagi guruh – kadetlar va sotsialistlarning mavjudligi namoyon bo'ladi. Muallif sotsialistlarning g'oyalarini ma'qullaydi.

Mazkur risolaning muhim jihatlaridan biri shuki, unda olib borilgan yer-suv islohoti borasida turli tomonlarning yondashuvlari qiyosiy solishtirilgan. Shu bilan birga, islohotga moslashishga targ'ib ko'zga tashlanadi.

Asar quyidagi bo'limlardan iborat.

Kirish qismi. Buni muallif "ifodai maxsusa" deb nomlaydi.

"Yerni kim tasarruf qilsun?" sarlavha bilan boshlanadi. Titul sahifaning eng yuqori qismida "Bismika ya Alloh" jumlasini yozilgan. Muallif ushbu qismda Rusiyaning yaqin o'tmishiga nazar soladi. Unda yer va suvlardan asosan kimlar foydalanganligi, dehqonlarga hosildor yerlar deyarli berilmaganligi, faqatgina ijaraga yer berilib dehqon kuchidan foydalanilganligi kabi holatlar qoralab yoziladi. Lekin inqilob natijasida mamlakatdagi sinfiy bo'linish barham topganligi, yer va suv barchaning mulkiga aylanganligi qayd etilgan.

"Yer haqida ikki turli fikr" nomli bo'limda muallif bolsheviklarning takliflarini qo'llab-quvvatlaydi: "Yer ko'p bo'lsa-da, hosildor yer yetishmaydi, Yerida ishlamaganlarning yerlarini tasarruf qilmoq qonunan joiz"²⁴. Muallif: "Yerning xususiy kishilarga mulk bo'lmog'ini ta'min etgan qonun jamiyati bashariyat uchun zararlidir..." degan xulosani beradi. Ushbu qism so'ngida muallif: "Qoditlar va susyalizm orasida yerning ta'mini to'g'risida tafovut bor, quyida har ikkisinin fikriga to'xtalamiz", deb fikrini davom ettiradi.

"Yer haqida birinchi fikr". Ushbu bo'limda muallif kadetlar fikrini keltiradi. Uning aytishicha: "Beshinchi (1905) yilgi inqilobdan keyin paydo bo'lgan siyosiy firqalar orasida ziyolilar, xalq hurriyati tarafdorlari deb nom olgan *qodit firqasining* fikricha – boylardan yerlarini olib dehqonlarga berish kerak, lekin yerning sobiq egasiga davlat tarafidan pul to'lanishi kerak, bu pul yer olgan dehqonlarga solingan soliqlar hisobiga amalga oshiriladi, boylarning qo'llaridagi yerlarni tortib olish, ularga haq to'lamaslik ularga nisbatan jabr bo'ladi, boylarning yerlarini ham bir qismini olish, qolgan qismini boylarning o'zlarigi ham qoldirish kerak". Muallif o'z e'tirozini bildirib: "birinchidan, yerdan olinadigan to'lovlar uchun dehqonlarning qurbi yetmaydi, ikkinchidan olingan katta yerlar uchun hukumat milliardlab pul yig'ishga imkoniyati ham yetmaydi, agar cherkov va monastir yerlari bilan qo'shib hisoblasak, dehqonlar bir necha milliardlab mablag' to'lashlariga to'g'ri keladi. Buni dehqonlar ma'qullamaydilar".

"Yer haqida ikkinchi fikr". Sotsialistlarning fikrini muallif quyidagicha izohlamoqda: "Yerni boylardan olinadi, ularga pul to'lash haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Hukumat mamlakatdagi hamma yerdan umum xalqning foydalanishi mumkinligini e'lon qiladi. Kim bo'lsa ham yerni olib unda ishlashi mumkin. Yerni sotish, olish, ijaraga berish mumkin emas. Yerdan har kim o'zi ishlasin, tashqaridan odam jalb qilib ishlatishi qonunan mumkin emas".

Muallif xulosa qismida bolsheviklar g'oya va qabul qilgan qarorlariga o'z fikrini bildirib, ushbu qonunlar "insoniyat rivoji uchun katta manfaatlar olib kelishi, eng asosiysi insonlar uchun adolat va tenglikni ta'minlashi"ni ta'kidlaydi²⁵.

²⁴ Ishchi. Yer haqida ikki turli fikr, Noshir: Yer-suv komissariyati, Samarqand-1919y. 35-b. O'zRFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozma va toshbosma asarlar fondi. Inv.№ L.9441. B.: 13-15.

²⁵ Ishchi. Yer haqida ikki turli fikr, Noshir: Yer-suv komissariyati, Samarqand-1919y. 35-b. O'zRFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozma va toshbosma asarlar fondi. Inv.№ L.9441

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur nashr bahsli jarayonlarda targ'ibot materiali sifatida tayyorlanganligi shubhasiz.

Ikkinchidan, titul sahifasida keltirilgan "Bismika ya Alloh" jumlasidan muallifning bahsli jarayonlarga o'ziga shaklan ma'qul va adolatli prinsplarni ilgari surayotgan yangi hukumatga umid bilan tayanishi ko'zga tashlangan. Aslida ko'plab islohotchi ziyolilar muvaqqat hukumat davridagi faoliyatlarida yangi o'zgarishlarga umid bilan targ'ib qilganliklari, yangi zamonda din, adolat va tenglik hukm surishiga umid qilganliklari ko'rinadi.

Uchinchidan, bir "ishchi"ning mulohazalari, tushunchalari asosida yozilgan risola ko'rinishida bo'lsa-da, unda bolsheviklar siyosatining ulug'lash, Yevropadagi kapitalistik tuzum va munosabatlarning qoralanishi kabi jihatlar asarning bolsheviklar buyurtmasi asosida tayyorlanganligini yorqin ifodalaydi. Bu asar omma ongiga bolsheviklar g'oyalarini "oddiy ishchi" tarafidan singdirishga bag'ishlangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarni qamrab olgan "Yer islohoti" haqida rasmiy hukumatning barcha matbuot nashrlari orqali tashviqoti amalga oshirildi. "Pravda Vostoka" №279, 1926-yildagi gazetada "Duxovenstvo o zemreforme" sarlavha ostida maqola tarixiy hujjatning faksimile nusxasi bilan birgalikda chop etilgan. Markazda hujjatning faksimilesi joylashtirilgan, uning atrofida maqola matni berilgan. Ya'ni shaklan maqola tarixiy hujjat mazmunini yoritayotganligini ko'rsatadi. Mazkur maqolaning asosiy mazmuni yer islohotini shariat yuzasidan "joiz" ekanligini ulamolar tarafidan "tasdiqlaganligi"ni ko'rsatishdan iborat. Ushbu maqolaga ba'zi tadqiqotchilar to'xtalib o'tgan, lekin tarixiy hujjat batafsil o'rganilmagan. Shu bois, maqolada keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda mahalliy ulamolar rasmiy hukumat siyosatini qo'llab-quvvatlashgan degan xulosa shakllangan²⁶. Aslida vaziyat tubdan boshqacha bo'lganligi maqola markazidagi tarixiy hujjat va shu mazmundagi tarixiy hujjatlar tahlili orqali namoyon bo'ladi.

Hujjatning asosiy mazmunini beruvchi fors tilidagi matn qismiga to'xtalamiz. Mazkur matn shakliga ko'ra *rivoyat* uslubida yozilgan. Mazmunan *yer islohotiga* xizmat qiluvchi amaliy chora-tadbirlarni taklif qilib, ularni shariatga muvofiq yoki muvofiq kelmasligi borasidagi murojaat bilan savol shaklida yakunlanadi. Taklif shundan iboratki, katta yer egalari o'zlari o'z kuchi va imkoniyati doirasida tasarruf eta olmaydigan yerlarni yersiz dehqonlarga taqdim etsalar, mazkur dehqonlar olgan hosillari va daromadlaridan *ushr* solig'ini rasmiy hukumatga taqdim qilsalar, islom shariatiga muvofiq bo'ladimi degan mazmunda keltirilgan. Murojaat qiluvchi: Mullo Ibrohim Mullo Komil o'g'li rivoyat matnini mazkur murojaat savoli bilan yakunlaydi.

Ko'ryapmizki, unda rasmiy hukumatning yer islohoti shiori ortida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ekspropriatsiya siyosati qo'llab-quvvatlanmagan. Rivoyat matni maqolada ilgari surilgan mulohazalarga mazmunan muvofiq emas.

Tarixiy hujjatning o'ng tarafida quyidagi argumentlar keltirilgan:

تَصَرَّفُ الْإِمَامِ عَلَى الرَّعِيَةِ مَنُوطٌ بِالْمَصْلَحَةِ أَشْبَاهُ مِنَ الْقَاعِدَةِ الْخَامِسَةِ

Mazkur dalil, "الاشباه والنظائر - حنفي" nomli manbadan olinganligiga ishora qilingan²⁷. Lekin manbada uning keltirilishi quyidagicha:

القاعدة الخامسة : تصرف الإمام على الرعية منوط بالمصلحة
وقد صرحوا به في مواضع :

²⁶ Шигабдинов Р. «Советские Ривояты» с Средней Азии: реакция улемов на социалистические реформы 1920-х годов // Материалы международной исламоведческой научной конференции 11-13 декабря 2007 г., Мир Ислам. История. Общество. Культура, Москва: Издательский дом Марджани, 2009. –С. 21- 26

²⁷ زين الدين بن ابراهيم بن محمد ابن نجيم. الاشباه والنظائر (O'zRFA SHI Qo'lyozma asarlar fondi, Inv.№ R.8169; 11734)

منها : في كتاب الصلح في مسألة صلح الإمام عن الظلة المبنية في طريق العامة وصرح به الإمام أبو يوسف رحمه الله في كتاب الخراج في مواضع وصرحوا في كتاب الجنايات : أن السلطان لا يصح عفوه عن قاتل من لا ولي له وإنما له القصاص والصلح²⁸

Tarjimasi: (Beshinchi qoida: Imomning xalq ustidagi tasarrufi xalq manfaatiga bog'liq.

Ulamolar bir necha o'rinlarda uni ochiq bayon qilganlar:

Ulardan: "Sulh" kitobida, ommaning yo'lida soya (qurilgan uyning) soyasi borasida imomning sulhi masalasida. Abu Yusuf "Xaroj" kitobida, bir necha o'rinlarda buni bayon qilgan va ulamolar jinoyatlar kitobida aytadilarki: Sulton valisi bo'lmagan insonning qotilini afu qilishi to'g'ri emas. Qasos va sulh unga yuklatiladi.

Ko'ryapmizki, qo'llanilgan argument mazmuni yer islohoti masalalariga aloqadorlik jihati mavjud emas. Ikkinchidan, qo'llangan dalil diniy/islomiy davlat boshqaruvchisining vazifasini ta'riflamoqda. Ya'ni nafaqat shaklan, mazmunan ham mazkur qo'llanilgan argument maqola va hujjat mazmuniga muvofiq emas.

Ikkinchi dalil quyidagicha keltirilgan.

في التَّائِرِ خَائِيَّةٍ [أَنَّهُ] يَجُوزُ لِلْإِمَامِ دَفْعُهُ لِلزَّرَّاعِ بِأَحَدِ طَرِيقَيْنِ إِمَّا بِإِقَامَتِهِمْ مَقَامَ الْمَلَائِكِ فِي الزَّرَّاعَةِ وَإِعْطَاءِ الْخَرَاجِ ، وَأَمَّا بِإِجَارَتِهَا لَهُمْ بِقَدْرِ الْخَرَاجِ ، فَيَكُونُ الْمَأْخُودُ فِي حَقِّ الْإِمَامِ خَرَاجًا ، ثُمَّ إِنْ كَانَ دَرَاهِمَ فَهُوَ خَرَاجٌ مُوْظَفٌ ، وَإِنْ كَانَ بَعْضَ الْخَرَاجِ فَخَرَاجٌ مُقَاسَمَةٌ وَأَمَّا فِي حَقِّ الْإِكْرَاءِ فَأَجْرَةٌ لَا غَيْرَ

Mazkur dalil ham batafsil keltirilgan manbasidan "uzib" olib keltirilgan bo'lib, uning to'liq mazmun beruvchi qismi quyidagicha:

قُلْتُ : وَهَذَا نَوْعٌ ثَالِثٌ يَعْني لَا عَشْرِيَّةَ وَلَا خَرَاجِيَّةَ مِنَ الْأَرَاذِيِّ تُسَمَّى أَرْضَ الْمَمْلَكَةِ وَأَرَاذِيَّ الْحُوزِ ، وَهُوَ مَنْ مَاتَ أَرْبَابُهُ بِلَا وَارِثٍ وَالْأَلِ لِبَيْتِ الْمَالِ أَوْ فُتِحَ عَنُودُهُ ، وَأَبْقِيَ لِلْمُسْلِمِينَ إِلَى يَوْمِ الْقِيَامَةِ وَحُكْمُهُ عَلَى مَا فِي التَّائِرِ خَائِيَّةٍ أَنَّهُ يَجُوزُ لِلْإِمَامِ دَفْعُهُ لِلزَّرَّاعِ بِأَحَدِ طَرِيقَيْنِ إِمَّا بِإِقَامَتِهِمْ مَقَامَ الْمَلَائِكِ فِي الزَّرَّاعَةِ وَإِعْطَاءِ الْخَرَاجِ ، وَأَمَّا بِإِجَارَتِهَا لَهُمْ بِقَدْرِ الْخَرَاجِ ، فَيَكُونُ الْمَأْخُودُ فِي حَقِّ الْإِمَامِ خَرَاجًا ، ثُمَّ إِنْ كَانَ دَرَاهِمَ فَهُوَ خَرَاجٌ مُوْظَفٌ ، وَإِنْ كَانَ بَعْضَ الْخَرَاجِ فَخَرَاجٌ مُقَاسَمَةٌ وَأَمَّا فِي حَقِّ الْإِكْرَاءِ فَأَجْرَةٌ لَا غَيْرَ لَا عَشْرَ وَلَا خَرَاجَ فَلَمَّا دَلَّ الدَّلِيلُ عَلَى عَدَمِ لُزُومِ الْمُؤْتَنِّينِ الْعَشْرَ وَالْخَرَاجَ فِي أَرَاذِيَّ الْمَمْلَكَةِ وَالْحُوزِ كَانَ الْمَأْخُودُ مِنْهَا أَجْرَةٌ لَا غَيْرَ²⁹.

"Bu uchinchi turi, ya'ni, agar yer hadya qilingan, egasi bo'lmagan, egasi vafot etib, yer egasining vorislari bo'lmagan bayt ul-molga tegishli bo'lgan, yoki fatx orqali olingan va qiyomatga qadar musulmonlarga qoldirilgan yerlar sarasiga kirsam, bunday yerlardan xaroj va ushr soliqlari olinmaydi. Uning hukmi Tatarxoniyada keltirilishicha, imom dehqonlarni himoya qilish uchun ikki yo'ldan birini tutishi joiz: yo dehqonlarni xususiy mulk egasi darajasiga tayinlab, (ya'ni yerni xususiy mulkka o'tkazib) u orqali xaroj to'lash vazifasini yuklashi, yoki ularga yerni ijara (arenda) tarzida berib, xaroj solig'i miqdorida ijara haqqini oladi. Qabul qilingan xaroj imomning haqqi, so'ng u agar dirham (pul) bo'lsa, u xizmat qiluvchi xarojdir (bu holatda hosilni yarmigacha imom olishi mumkin), ba'zi xarojlar taqsimlanadigan xaroj bo'ladi (bu holatda 1/3 gacha hosilni miqdorini oladi). Ijara haqqiga kelsak, uning birgina to'lovi bor (bu holda har ikkisining kelishuviga asoslaniladi), undan ushr ham xaroj soliqlari ham (olinmaydi). Hadya qilingan, egasi bo'lmagan yerlardan ushr va xaroj ta'minotiga zaruriyatsizlik dalili ko'rsatilganda ulardan olinadigan birgina to'lovidir, boshqa narsa yo'q.

Mazkur argument hujjat mazmuniga nisbatan muvofiq kelib rivoyat qiluvchi mulohazalariga bog'liq. Lekin argumentda nazarda tutilgan rahbar rasmiy Sovet hukumati emas, balki al-imamga, islomiy davlat rahbariga berilgan huquq nazarda tutilgan. Ikkinchidan, shaxsiy mulk hisoblanmagan, davlat yeri bo'lgan yerlarni tasarruf qilish haqida ko'rsatma berilmoqda. Islom

²⁸ الإشباه و النظائر - حنفي، الباب: القاعدة الخامسة : تصرف الإمام على الرعية، الجزء 1، الصفحة 149\البرنامج - المكتبة الشاملة\http://www.shamela.ws

²⁹ رد المحتار، الباب: العشر و الخراج و الجزية، الجزء 16، الصفحة 114\البرنامج - المكتبة الشاملة\http://www.shamela.ws

shariatiga ko'ra, yuqorida qayd etilganidek, yer maydonlari xususiy, davlat yeri va hech kimga tegishli bo'lmagan yerlarga taqsimlanadi. Ya'ni *rivoyat* matnida xususiy yerlar borasida taklif berilmoqda, maqolada aynan xususiy mulkka ega bo'lgan yer egalarini yer mulklaridan foydalanish borasidagi fikr ilgari surilmoqda.

Navbatda muallif yana bir necha dalillarni keltirgan va diniy manbalarga ishora bergan, lekin manbalarda ushbu argumentlar aniqlanmadi.

Maqolaga asos sifatida olingan hujjatning analoglarini qiyosiy solishtirgan holda o'rganish maqsadga muvofiq. Markaziy davlat arxivi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma asarlar fondida "Yer islohoti"ga doir ko'plab hujjat saqlanadi³⁰.

Yuqorida keltirilgan tarixiy hujjatga o'xshash mazmundagi navbatdagi hujjat: Asosiy matni turkiy tilda, dalillar asosiy matn chetida arab tilida keltirilgan.

Hujjatning asosiy mazmuni yer islohoti – katta yer egalarning mulkini davlat ulardan olib yersiz yoki kam yerli dehqonlarga berishning shariatga ko'ra joizligini namoyon etadi.

Yuqorida aytganimizdek, asosiy mazmun yonida uni "tasdiqlovchi" dalillar keltirilgan. Dalillardan biri quyidagicha:

عنه قَالَ كُنَّا نَخَافُ وَلَا نَرَى بِذَلِكَ بَأْسًا حَتَّى زَعَمَ رَافِعٌ أَنَّ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ نَهَى عَنْهَا ، فَتَرَكْنَاهَا مِنْ أَجْلِ ذَلِكَ

Dalil manbada keltirilgan shaklidan uzib olingan, mazkur hadis ma'no jihatidan muallifning fikriga mos emas.

Yuqoridagi holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, birinchidan hujjatda keltirilgan dalillar umuman hujjatning asosiy "targ'ibot" matniga mos kelmaydi, qolaversa ko'p hollarda unga ziddir.

Ikkinchidan mazkur hujjat bolsheviklarning siyosatiga moslangan "buyurtma" asosida tayyorlanganligi namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, mazkur hujjat oddiy xalq darajasiga mos tarzda tayyorlangan. Shuningdek, bolsheviklar siyosatiga qarshi boshlangan dehqonlar faoliyatini to'xtatishga qaratilgan.

Jumladan, katta yer egalari ularning xususiy yerlar "Yer islohoti" jarayonlarida hukumat tomonidan "tortib" olinib, dehqonlarga bo'lib berilgach, dehqonlar mazkur siyosat shariat yuzasidan joiz emas degan fikr bilan olingan yerlarni egalari qaytarib berish holatlari kuchaygan³¹. Bir tomondan mazkur jarayonlarda musulmon ulamolarining ishtiroklarini ham ko'rish mumkin. Yuqorida keltirilgan *fatvo* va *rivoyatlar* bir qancha qozilar tomonidan imzolangan. Ularni turli hududlarga tarqatish uchun ulardan qo'lda ko'chirish orqali nusxalar olingan. Shu bois, har bir muhr egasi bo'lgan qozi nomlari yozilgan yoki immitatsiya tarzida shakli chizilgan. Mazkur hujjatlarning original nusxalari arxivlardan izlanmoqda.

Mavzu doirasida mavjud ko'plab bibliografik arxiv va chop etilgan materiallarda³² Sovet hukumati olib borgan "Yer-suv islohoti" siyosati mahalliy aholi tarafidan qizg'in va ijobiy qarshi

³⁰ O'zRFA SHI, Qo'lyozma asarlar fondi, tarixiy hujjatlar kolleksiyasi, Papka № 51.

³¹ Мустафа Чокай-оглы. Туркестан под властью советов, Издание «Яш Туркестан» Париж, 1935. – С. 45-47

³² О роли рабочего класса в укреплении селсоветов УзССР в период коллективизации сельского хозяйства // ОНУ, № 10, 1983; Против чайрикерства // За реконструкции с/х 1929, С-12-18; Положение батрачества Аимского района // За реконструкции с/х, №4, 1929, С-29-38; Организационная неустойчивость колхозов // За реконструкции с/х 1929, С-9-11; Покоренный Зеравшан // Литсом к деревне, № 13, 1930, С-18-19; Текстиль в Средней Азии у вчерашних кочевников // Литсом к деревне, № 22, 1929, С-4-5; Критика и библиография // За реконструкции с/х 1930, С-182-189; В Бухаре. На съезде мусульманского духовенства // Туркестанская правда № 28, 1924; Страна хлопка // Литсом к деревне, № 18, 1929, С-5-6; Земельная реформа идет. Баи и духовенство // Правда востока. №42, 18 февраль 1926 г.; Земельная реформа идет. Сюрпизи высшему духовенству // Правда востока. №38, 10 февраль 1926 г.; Земельная реформа идет. «Ислахат» и «Реформа» // Правда востока. №39, 15 февраль 1926 г. (Яшасун ер-ислахати!); Безбожники востока, будьте активни! //

olinganligi borasida ma'lumotlar talaygina. Shuningdek, ushbu siyosatga doir targ'ibot filmlari³³ ham mavjud. Mantiqan olganda, manfaat nuqtayi nazaridan vaziyat tabiiy holatga o'xshashi mumkin. Biroq mahalliy ulamolarning mazkur siyosiy jarayonda ishtirok etishi³⁴ va qo'llab-quvvatlashi shubhali holat ekanligi tadqiqot jarayonida o'z tasdig'ini topdi.

“Yer-suv islohoti” borasidagi original hujjatlarning qiyosiy tahlili natijasida sobiq sovet davridagi ba'zi yondashuv va xulosalar noto'g'ri ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Garchand, kolonial hukumatning keskin siyosati bilan targ'ibot-tashviqot ishlari tashkil etilgan bo'lsa-da, o'zganing mulkiga tajovuz qilish mazmunidagi hukumat siyosatiga mahalliy ziyolilardan tortib oddiy fuqarolargacha qarshiliklar bo'lganligi tarixiy hujjatlarning matnlari va argumentlari zahirida aks etadi.

Ayniqsa, mazkur siyosat borasidagi noto'g'ri yondashuv maktab darsliklarida mavjud ekanligi borasida gap ketganda, masala jiddiy ekanligi, yosh avlod ongining shakllanishida, millat o'tmishiga bo'lgan chuqur hurmat hissini shakllantirishda bu kabi nuqsonlarni bartaraf etish muhim vazifalardan ekanligi namoyon bo'ladi. Jumladan, maktab darsliklarida Yer-suv islohoti siyosati yetarli darajada yoritilmagan. Ba'zi o'rinlarda sobiq sovet hukumati hisobot materiallarini keltirish va tortib olingan yerlar miqdorlariga e'tibor qaratish orqali mavzu bayon qilingan. Mavzuning bu ko'rishda yoritilishi o'quvchida na ajdodlari o'tmishidan ibrat olish imkonini, na mavzu mohiyatini shaklan va mazmunan tushunish imkonini beradi, aksincha, o'sha davr tarixidan nafratlanish hissini uyg'otishi mumkin³⁵.

Vaholanki, bu davr tarixi qadriyatlar, vijdon va e'tiqod jihatidan sinalgan juda bahsli jihatlariga boy, sabr va fidoyilik xatti-harakatlariga to'la ibratli voqealarni o'zida jamlagan. Qolaversa, islohotga qadar kuchli targ'ibot ishlari amalga oshirildi. Islohot natijalarini uzoq yillar ommaviy targ'ibot materiallari va ilmiy tadqiqotlar orqali oqlash ishlari amalga oshirildi. Mazkur faoliyatlar ham yer-suv islohoti siyosatining muhim bosqichlari hisoblanadi.

Islohotchilik harakatini olib borgan ajdodlarimiz kolonial hukumatning “Yer-suv islohoti” borasidagi takliflarining ilk kunlaridanoq noto'g'ri siyosat ekanligini isbotlashga urinishgan. Albatta, mavjud qonuniy asoslar hisoblangan diniy manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Biroq, masalaning tub mohiyatini yoritishda tabiiy va oddiy misollar bilan o'zganing mulkiga tajovuz qilish nosog'lom yondashuv ekanligini har tomonlama yoritishgan va ommaga yetkazishgan.

Biroq, hukumat tepasiga kelgan bolsheviklar ushbu siyosatni turli talqinlar, rasmiy matbuot nashrlari orqali targ'ibot qilganlar.

“Yer-suv islohoti”ni amalga oshirish mexanizmida bolsheviklarning g'oyasi vosita bo'ldi, aslida katta va o'rta yer egalarning mulkini mulksiz dehqonlarga bo'lib berish siyosatning mazmuni xususiy mulklarni davlat tasarrufiga o'tkazishdagi bir bosqich bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan maqola, hujjat va ularning dalillari yuzasidan xulosa sifatida aytish mumkinki, bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan yer islohoti siyosati mintaqada birmuncha bahsli qarshi olingan. Shu bois, rasmiy hukumat uning ijrosini taminlashda mahalliy diniy ulamolar ko'rsatmalaridan sun'iy foydalanish choralarini ham ko'rgan. Biroq ko'zlangan masadlarga asosli va huquqiy qarshi e'tirozlar bo'lganligi, sog'lom bahslar orqali maqsadga erishish imkonsiz ko'ringach siyosiy ta'ziqlar orqali mazkur siyosat “islohot” nomi ostida

Правда востока, 25 декабрь 1928 г.; Проведение сплошной коллективизации сельского хозяйства в Узбекистане и ее социально-экономические последствия (1929-1937 г.г.)

³³ Xo'ja Nasriddinning yangi srguzashtlari. SSSR, 1943-yil. Rejisser: Nabi G'aniyev

³⁴ Земельная реформа идет. Баи и духовенство // Правда востока. №42, 18 февраль 1926 г.

³⁵ O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma. Nashrga tayyorlovchilar: D.O'roqov, A.Sharapov. T.: Akademnashr, 2020. – B.348-351; O'zbekiston tarixi (10-sinf). T.: G'afur G'ulom, 2017. –B. 61-66; O'zbekiston tarixi. T.:Sharq, 2011. –B.351-372

amalgam oshirilgan. Shu bois tarixda kirib qolgan “Yer-suv islohoti”ning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, uning “islohot” emas, balki mustamlaka hukumatining ekspropriatsiya siyosati sifatida baholash va o‘rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. В. .К. Земельная реформа идет (Баи и духовенство) // Правда Востока. № 42. 1926. – С.2
2. Духовенство о земреформе // Правда Востока. – №279. 1926. – С.2.
3. Yer islohoti // Qizil O‘zbekiston. № 287. 1925. – В.4.
4. Yer islohoti masalasi // Qizil O‘zbekiston. – № 284. 1925. – В.3.
5. Ishchi. Yer haqinda ikki turli fikr, Noshir: Yer-suv komissariyati, Samarqand-1919y. 35-b. O‘zRFA Sharqshunoslik. Inv.№ L.9441
6. Коммунистическая партия Узбекистана. Доклад Центрального комитета коммунистической партии (б.) Узбекистана. Самарканд, 1925. – С.4-6
7. Кунакова Л.З. Земельно-водная реформа в Узбекистане.: Автореф. дис. ... док. ист. наук. – М.: 1970. – С.6
8. Qur‘on ulamosining musulmonlarg‘a xitobi // al-Izoh. – Toshkent, 1918. – №22. – В. 343-345.
9. Qur‘oni karim / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur, – Т., 2004. – В.29.
10. Mulla Tosh Qori. Yer haqida // al-Izoh. – Т., 1918. – № 26. – В. 391-392.
11. Мустафа Чокай. Туркестан под властью советов. Париж, 1935. – С.45-47
12. О падении религии и переселении ишанов в кишлак // Правда Востока 04.11.1928. – С.4
13. Постановление «О запрещении продажи и покупки земель»// Туркестанские ведомости. 09.ХИИ.1917
14. Sotsialist va islom // al-Izoh. – Toshkent, 1918. – №15. – В. 235-238.
15. Урмандиев Н. Земельная реформа // Правда Востока. № 39. 1926. – С.3.
16. Fuqaho jamiyatining javobi // Izhar al-haq. №16. 1918. – В.229-232.
17. Fuqaho jamiyatining javobi // Ulug‘ Turkiston. №104. 1918. – В.4-5.
18. Шигабдинов Р. «Советские Ривояти» с Средней Азии: реакция улемов на социалистические реформы 1920-х годов // Материалы международной исламоведческой научной конференции 11-13 декабря 2007 г., Мир Ислам. История. Общество. Культура, Москва: Издателский дом Марджани, 2009. – С.21-26.
19. O‘zbekiston milliy arxivi, R-29-fond, 3-ro‘yxat, 1086-ish, 6-varaq.
20. O‘zbekiston milliy arxivi, R-29-fond, 3-ro‘yxat, 936-ish, 73-varaq.
21. O‘zbekiston milliy arxivi, R-57-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 7-varaq.
22. Паоло Сарторй. Ташкент 1918: гиурисперити мусулмани э ауторитà советиче сонтро и «предисатори дел базар» // Аннали ди са’ фоссари, Вол. 3. 2006. Р.124-127.